



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 1-son

VOLUME 5 / ISSUE 1 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 17.02.2024-yilda
bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 15,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 52.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практиче-
ский журнал «Юриспруденция» –
«Yurisprudensiya» – «Jurisprudence»
зарегистрирован Агентством печати и
информации Узбекистана 22 декабря
2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журна-
лов Высшей аттестационной комиссии
при Министерстве высшего образова-
ния, науки и инноваций Республики Уз-
бекистан.

Авторские права принадлежат Таш-
кентскому государственному юридиче-
скому университету. Все права защище-
ны. Использование, распространение и
воспроизведение материалов журнала
осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев,
К. Абдувалиева, Й. Махмудов,
М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
17.02.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 15,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 52.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор,
проректор по научной работе и инновациям Ташкентского
государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам,
доцент, начальник управления по науке Ташкентского
государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам,
доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы
Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа
Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск,
Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного юридического университета
(Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного юридического университета
(Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии
государственного управления при Президенте Республики
Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам,
и. о. доцента Ташкентского государственного юридического
университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей
школы судей при Высшем судейском совете Республики
Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент
Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент,
Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного юридического университета
(Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного юридического университета
(Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам,
доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и. о. доцента
Ташкентского государственного юридического университета
(Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 17.02.2024.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 15,8.

Units: 100. Order: № 52.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law. 100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimxonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne’matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 8 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Yurislingvistika va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish:
ayrim nazariy-huquqiy masalalar
- 17 **SODIKOV AKMAL SHAVKAT O'G'LI**
Norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash: huquqiy munosabat va vositalar tahlili

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **ISANOV XOLMUROD RUZIYEVICH**
Sun'iy intellekt tizimlari oshiqcha xavf manbai sifatida: fors-major holati

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 38 **JUMANAZAROVA MARJONA BOTIR QIZI**
Oxirgi zarurat holatida yetkazilishiga yo'l qo'yilgan zararining chegarasini aniqlash muammolari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 51 **XUDAYBERGENOV BAXRAM KUANISHBAEVICH, HABIBULLAYEV DALERBEK BAXTIYOR O'G'LI**
Shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish: xorij tajribasi
- 63 **BARAKAYEV LAZIZJON OTAQULOVICH**
Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq muammolar tahlili
- 75 **MAMADALIYEV O'TKIR ABDUG'AFFAROVICH**
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichida protsessual xatolarni bartaraf qilish imkoniyatlari

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 86 **KUDRATOV MANUCHEHR, NOROV ILXOM IBROXIMOVICH**
Markaziy Osiyoning ayrim davlatlarida korrupsiyaga qarshi choralar: qiyosiy tahlil
- 95 **MELIYEV XUDOYOR XURRAMOVICH**
Korrupsiyaning oldini olishda ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri (blokcheyn) texnologiyasi ahamiyati
- 102 **SAFAROV TEMUR UKTAMOVICH**
Davlat organlarida korrupsiyani aralash idoraviy nazorat qilish

12.00.15 – KRIMINOLOGIYA

- 114 **KASIMOV NODIRJON SODIKJONOVICH**
Qasddan odam o'ldirish jinoyatining viktimologik oldini olishda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi tahlili

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 121 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Yuridik terminologiyada leksik qatlamlarning qaror topishi
- 129 **ZIAMUXAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**
O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida qo'llangan *-lan, -lash, -lat, -lantir, -lashtir* affikslarini
yuridik ta'limda o'rganish bo'yicha mulohazalar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

- 8 **АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА**
Юрислингвистика и проведение лингвистической экспертизы проектов нормативно-правовых актов: некоторые теоретико-правовые вопросы
- 17 **СОДИКОВ АКМАЛ ШАВКАТ УГЛИ**
Информационное обеспечение нормотворчества: анализ правовых отношений и средств

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 30 **ИСАНОВ ХОЛМУРОД РУЗИЕВИЧ**
Системы искусственного интеллекта как источник повышенной опасности: форс-мажорные обстоятельства

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 38 **ЖУМАНАЗАРОВА МАРЖОНА БОТИР КИЗИ**
Проблемы определения пределов допустимого вреда в состоянии крайней необходимости

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

- 51 **ХУДАЙБЕРГЕНОВ БАХРАМ КУАНЫШБАЕВИЧ, ХАБИБУЛЛАЕВ ДАЛЕРБЕК БАХТИЁР УГЛИ**
Расследование преступлений, связанных с захватом заложников: зарубежный опыт
- 51 **БАРАКАЕВ ЛАЗИЗЖОН ОТАКУЛОВИЧ**
Анализ проблем назначения и проведения экономических экспертиз
- 75 **МАМАДАЛИЕВ УТКИР АБДУГАФФАРОВИЧ**
Возможности устранения процессуальных ошибок на этапе подготовки уголовного дела к судебному разбирательству

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

- 86 **КУДРАТОВ МАНУЧЕХР, НОРОВ ИЛЬХОМ ИБРОХИМОВИЧ**
Антикоррупционные меры в ряде стран Центральной Азии: сравнительный анализ
- 95 **МЕЛИЕВ ХУДОЁР ХУРРАМОВИЧ**
Значение технологии распределённого реестра данных (блокчейна) в предотвращении коррупции
- 102 **САФАРОВ ТЕМУР УКТАМОВИЧ**
Смешанный ведомственный контроль коррупции в государственных органах

12.00.15 – КРИМИНОЛОГИЯ

- 114 **КАСИМОВ НОДИРЖОН СОДИКЖОНОВИЧ**
Анализ опыта некоторых зарубежных стран в виктимологической профилактике преступлений умышленного убийства

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

- 121 **ГУЛЯМОВА ГУЛЬНОРА ЯКУБОВНА**
Создание лексических пластов в юридической терминологии
- 129 **ЗИЯМУХАМЕДОВА ШАХНОЗА ТОЛКУНОВНА**
Размышления об изучении аффиксов *-lan*, *-lash*, *-lat*, *-lantir*, *-lashtir* в юридическом образовании на примере новой Конституции Узбекистана

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **AKHMEDSHAEVA MAVLYUDA AKHATOVNA**
Legal linguistics and linguistic expertise of draft normative legal documents: some theoretical and legal issues
- 17 **SODIKOV AKMAL SHAVKAT UGLI**
Informational support for rulemaking: analysis of legal relations and means

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 30 **ISANOV KHOLMUROD RUZIYEVICH**
Artificial intelligence systems as a source of excessive risk: force majeure situation

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 38 **JUMANAZAROVA MARJONA BOTIR KIZI**
Problems of determining the limits of damage permitted in the case of extreme necessity

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 51 **KHUDAYBERGENOV BAKHRAM KUANISHBAEVICH, HABIBULLAYEV DALERBEK BAKHTIYOR UGLI**
Investigation of crimes related to hostage-taking: foreign experience
- 63 **BARAKAEV LAZIZJON OTAKULOVICH**
Analysis of problems related to appointment and conduct of economic expertise
- 75 **MAMADALIEV UTKIR ABDUGAFFAROVICH**
Opportunities for eliminating procedural errors during the preparatory stage of criminal case trials

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

- 86 **KUDRATOV MANUCHEHR, NOROV ILKHOM IBROKHIMOVICH**
Anti-corruption measures in several Central Asian countries: comparative analysis
- 95 **MELIEV KHUDOYOR KHURRAMOVICH**
The significance of distributed data register (blockchain) technology in preventing corruption
- 102 **SAFAROV TEMUR UKTAMOVICH**
Mixed departmental control of corruption in state bodies

12.00.15 – CRIMINOLOGY

- 114 **KASIMOV NODIRJON SODIKJONOVICH**
Analysis of the experience of some foreign countries in victimological prevention of premeditated killing

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

- 121 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Creation of lexical layers in legal terminology
- 129 **ZIYAMUKHAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**
Considerations on the study of the affixes *-lan*, *-lash*, *-lat*, *-lantir*, *-lashtir* used in the new Constitution of Uzbekistan in legal education

Kelib tushgan / Получено / Received: 13.01.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 03.02.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./SJTD3371

UDC: 328.185+004.6(045)(575.1)

KORRUPSIYANING OLDINI OLISHDA MA'LUMOTLARNING TAQSIMLANGAN REYESTRI (BLOKCHEYN) TEXNOLOGIYASI AHAMIYATI

Meliyev Xudoyor Xurramovich,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0009-0003-9431-0172
e-mail: legaluz15@gmail.com

Annotatsiya. Dunyo mamlakatlarida ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri (blokcheyn) texnologiyasidan foydalanish tobora ahamiyat kasb etib bormoqda. Jahon tajribasida korrupsiyaning oldini olishda raqamli ma'lumotlarni xavfsiz va shaffof tarzda saqlash uchun ushbu texnologiyadan keng foydalaniladi. O'zbekistonda ham bu borada raqamli innovatsiyalar imkoniyatlaridan, xususan, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish muhim hayotiy ahamiyatga ega. Maqolada ma'lumotlarni xavfsiz va shaffof tarzda saqlash uchun foydalaniladigan zamonaviy texnologiya – blokcheyn tushunchasi, mazmuni va uning raqamlashtirishda tutgan o'рни ko'rib chiqilgan. Davlat xizmatlarini raqamlashtirishda shaffoflikni oshirish orqali korrupsiyani kamaytirish davlat muassasalariga nisbatan ishonchni mustahkamlashga ham yordam beradi. Bu esa mavzuning qanchalar dolzarbligini belgilaydi. Muallif O'zbekistonda ham bu texnologiyani rivojlantirishning ayrim huquqiy va institutsional jihatlarini, jumladan, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda idoralararo elektron hamkorlikni kengaytirish va mavjud ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish borasida mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik normalarini o'rgangan. Shu bilan birga, maqolada ma'lumotlarning ishonchliligi, xavfsizligini ta'minlashda, korrupsiyaning oldini olishda blokcheynning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda ushbu texnologiyani turli sohalarda qo'llash bo'yicha xalqaro tajribalar qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish metodlari asosida tahlil qilingan. Xulosada tahlillar natijalariga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri, blokcheyn, raqamlashtirish, korrupsiyaning oldini olish, ma'lumotlar bazalari, reyestr, nomarkazlashtirish, ochiqlik, o'zgarimaslik

ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАСПРЕДЕЛЁННОГО РЕЕСТРА ДАННЫХ (БЛОКЧЕЙНА) В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ КОРРУПЦИИ

Мелиев Худоёр Хуррамович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Аннотация. Технология распределённого реестра (блокчейн) приобретает всё большую значимость в различных странах мира. В международной практике она широко применяется для обеспечения безопасного и прозрачного хранения цифровых данных, в том числе в целях предотвращения коррупции. В Узбекистане также актуально использование возможностей

цифровых инноваций, в частности технологии блокчейн, что имеет важное практическое значение. В статье рассматриваются понятие, содержание и роль блокчейна в цифровизации данных, а также его применение для их безопасного и прозрачного хранения. Повышение прозрачности в процессе цифровизации государственных услуг способствует снижению коррупции и укреплению доверия к государственным учреждениям, что подчёркивает актуальность данной темы. Автор исследует правовые и институциональные аспекты развития этой технологии в Узбекистане, включая внедрение современных информационно-коммуникационных технологий, расширение межведомственного электронного взаимодействия при предоставлении государственных услуг и цифровизацию существующих баз данных. Также в статье рассматривается значение блокчейна для обеспечения надёжности и безопасности данных, а также для предотвращения коррупции. Кроме того, в исследовании представлен сравнительно-правовой анализ международного опыта применения технологии блокчейн в различных сферах с использованием методов синтеза, наблюдения и правового анализа. В заключении на основе проведённого анализа предложены рекомендации по использованию блокчейна в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: распределённый реестр данных, блокчейн, цифровизация, предотвращение коррупции, базы данных, реестр, децентрализация, прозрачность, неизменяемость

THE SIGNIFICANCE OF DISTRIBUTED DATA REGISTER (BLOCKCHAIN) TECHNOLOGY IN PREVENTING CORRUPTION

Meliev Khudoyor Khurramovich,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *The use of distributed data registry (blockchain) technology is becoming increasingly important in countries around the world. In global practice, this technology is widely used to safely and transparently store digital data in the prevention of corruption. In Uzbekistan, the use of digital innovation capabilities, particularly blockchain technology, is of great importance in this regard. The article examines the concept, content, and role of blockchain - a modern technology used for secure and transparent data storage - in digitalization. Reducing corruption by increasing transparency in the digitalization of public services will also help to strengthen trust in public institutions. This determines the relevance of the topic. The author also analyzed some legal and institutional aspects of the development of this technology in Uzbekistan, including the legislative norms adopted in our country on the widespread introduction of modern information and communication technologies into the sphere, the expansion of interagency electronic cooperation in the provision of public services, and the digitization of existing databases. The role of blockchain in ensuring the reliability and security of data and preventing corruption has been studied. Also, in the study, international experience in the application of this technology in various fields was analyzed based on the methods of comparative legal analysis, synthesis, and observation. In the conclusion, based on the results of the analysis, proposals were put forward for the use of blockchain technology in the fight against corruption.*

Keywords: *distributed data registry, blockchain, digitalization, prevention of corruption, databases, registry, decentralization, transparency, immutability*

Kirish

Joriy asrda paydo bo'lgan va raqamlashtirish sohasida muvaffaqiyatli texnologiyalardan biri ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri yoki blokcheyn hisoblanadi.

Blokcheynga sodda qilib "raqamli ma'lumotlarni xavfsiz va shaffof tarzda

saqlash uchun foydalaniladigan zamonaviy texnologiya" deb ta'rif berishimiz mumkin. U ma'lumotlarni bir zanjirga ulangan bloklar ko'rinishida saqlaydi. Har bir blokda ma'lumot va o'tmish bilan bog'liqlik mavjud. Bu uning buzilmasligini va ma'lumotlarni o'zgartirib bo'lmasligini ta'minlaydi.

Blokcheynning ommalashuvi 2008-yilda Satoshi Nakamoto tomonidan chop etilgan “Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System” [1] maqolasi bilan bog‘lanadi. Taklif etilgan texnologiyaning asosiy vazifasi ish-tirokchilar o‘rtasida ishonch munosabatlari mavjud bo‘lmagan sharoitda tranzaksiyalar haqida yozuvlar reyestrini yaratish mexanizmini ishlab chiqish, ya’ni biron-bir ish-tirokchi yozuvni o‘chira olmaydigan yoki soxtalash-tira olmaydigan tranzaksiyalar jurnalini tuzishdan iborat edi. Ishonchli muhitning asosiy prinsipi jurnalning saqlanishini markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o‘tkazish va uning o‘ziga xosligini kafolatlash mexanizmidir [2].

Material va metodlar

Maqolada korrupsiyaning oldini olishda raqamli ma’lumotlarni xavfsiz va shaffof tarzda saqlash uchun foydalaniladigan blokcheyn texnologiyasi va uning istiqbollari o‘rganilgan. Tadqiqotda ushbu texnologiyani turli sohalarda qo‘llash bo‘yicha xalqaro tajribalar qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish metodlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, bu borada milliy huquqiy asoslar va infratuzilma yaratishga ehtiyoj sezilayotgani ta’kidlandi. Xulosada ushbu texnologiyani korrupsiyaning oldini olishda qo‘llash bo‘yicha takliflar berildi.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda blokcheyn texnologiyasi AQSh, Xitoy, Shveysariya, Singapur, Yaponiya, Germaniya, Kanada, Salvador singari mamlakatlarda turli sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda.

Blokcheyn texnologiyasini o‘rganishga ixtisoslashgan “Blockchain council” [3] sayti ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab boshqa davlatlar ham blokcheynni qisqa fursatlarda qabul qilishga tayyor va albatta, yaqin yillar ichida uning o‘ssishi, kengayishi kutilmoqda. Blokcheyn havaskorlari bu rivojlanish internetning keng yoyilishidan ancha farqli bo‘lishini taxmin qilishyapti. Ba’zi davlatlar yangi texnologiyani qabul qilishni qo‘llab-quvvatlayotgan

bo‘lsa, boshqalari esa blokcheyn va kriptovalyutaga nisbatan shubha bilan qaramoqda. Ammo har ikki turdagi davlatlar ham blokcheyn rivojlanishini rag‘batlantiryapti.

Tadqiqotlar jahonda blokcheyn bozori kapitalizatsiyasi 1,23 trln dollardan oshayotganini ko‘rsatmoqda. Ko‘plab hisobotlarga ko‘ra, 2030-yilga borib, global yalpi ichki mahsulot faqat blokcheyn texnologiyasidan foydalanish orqali 2,8 trln AQSh dollariga oshishi mumkin, bu uni jahon iqtisodiyotining muhim hissasiga aylantirib qo‘yadi [4].

E’tiborlisi shundaki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida blokcheyn bo‘yicha jiddiy ishlar olib borilmoqda: standartlar ishlab chiqilmoqda, huquqiy jihatlar o‘rganilmoqda va blokcheyn texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha pilot loyihalar amalga oshirilmoqda. Blokcheyn texnologiyasi asosidagi ilovalar turli loyihalar va operatsiyalarda yakka holda yoki birgalikda jami o‘nta tashkilot tomonidan qo‘llanadi [5].

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ushbu texnologiyani rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi va uning barcha foydalanuvchilari yagona tilda gapirishiga kafolat berish uchun intilmoqda. Bu harakatlarning amaliy natijasi o‘laroq, 2022-yilda tashkilot o‘zining alohida hujjatini [6] qabul qildi.

Qayd etilgan ma’lumotlar blokcheyn texnologiyasining istiqbolini ko‘rsatish bilan birga, uni rivojlantirish uchun milliy darajada huquqiy asoslar va infratuzilma yaratish zaruratini paydo qiladi.

2018-yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptofektivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori qabul qilingan. Qarorda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy ish ko‘nikmalariga ega malakali

kadrlarni tayyorlash, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda bu texnologiyalarni joriy etish uchun zarur huquqiy bazani yaratish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Ushbu qaror asosida 2018-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3927-sonli qarori qabul qilingan (Hujjat ayni paytda kuchini yo'qotgan). Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining davlat muassasasi shaklidagi "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilib, xususan, quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasidagi, shu jumladan, "blokcheyn" texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq loyihalarni davlat-xususiy sheriklik shartlarida amalga oshirish uchun investorlarning mablag'larini jalb etish va birlashtirish;

- blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha o'quv tadbirlari va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

- blokcheyn texnologiyalarini joriy etish va kript-aktivlar aylanmasi uchun platformalar tashkil etish hisobiga yanada rivojlantirish borasidagi, ayniqsa, yoshlarning tashabbuslari (startaplari)ni qo'llab-quvvatlash;

- kript-aktivlar aylanmasi va blokcheyn texnologiyalari sohasida yetakchi xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etishda, shu jumladan, yuqori malakali chet el mutaxassislarini jalb etishda texnik ko'makni ta'minlash.

Biroq "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyati samarasizligi va bosh-

qa qator sabablar tufayli jamg'armani tashkil etish to'g'risidagi qaror davlat rahbarining 2021-yil 19-iyuldagi "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tugatishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5187-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotdi. Faoliyati davomida ushbu jamg'arma tomonidan blokcheyn texnologiyasi bo'yicha qilingan ishlarni sezilarli deb bo'lmaydi. Jamg'arma faoliyati tugatilishi bilan uning blokcheyn texnologiyalari sohasidagi vazifa va vakolatlari boshqa davlat tuzilmalariga o'tkazilmadi. Bu esa ushbu yo'nalish bo'yicha ishlarning birmuncha susayishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3150-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi to'g'risida"gi nizomning 8-bandiga ko'ra, agentlikning asosiy vazifalaridan biri davlat boshqaruvi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyasini va boshqa eng yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha loyihalarni tashabbus qilish va ilgari surishga ko'maklashish hisoblanadi.

Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyasi ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda idoralararo elektron hamkorlikni kengaytirish va mavjud ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish, konfidensial axborotlarning xavfsizligini ta'minlashda blokcheyn texnologiyalariga asoslangan raqamli transformatsiya orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning innovatsion yondashuvlarini joriy etish belgilangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Davlat xizmatlarini raqamlashtirishda shaffoflikni oshirish orqali korrupsiyani ka-

maytirish davlat muassasalariga nisbatan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. O'zbekistonda ham bu borada raqamli innovatsiyalar imkoniyatlaridan, xususan, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish muhim hayotiy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mahalliy va xalqaro miqyosda ishlab chiqilgan ko'plab yangi raqamli ilovalar fuqarolarga litsenziyalar va ruxsatnomalar olish uchun murojaat qilish, yuridik maslahat olish, shuningdek, korrupsiya va poraxo'rlik holatlari haqida xabar berish uchun samarali vositalarni taqdim etdi.

"Davlat organlarida blokcheyn texnologiyasini qo'llash aholi turmush darajasini yaxshilash, tengsizliklarni kamaytirish va oldinga "sakrash"ga yordam beradi" – degandi YIning O'zbekistondagi elchisi Charlotta Adrian va BMTTDning O'zbekistondagi doimiy vakili Matilda Dimovska [7].

Shuni ta'kidlash kerakki, blokcheyn texnologiyasini respublikamizda davlat xizmatlari, xususan, FHDY organlari faoliyati sohasida "FHDY yagona elektron arxivi" axborot tizimida qo'llash ijobiy natija berdi.

Blokcheyn texnologiyasi reyestrni rivojlantirishning yangi bosqichi bo'lib, mol-mulk aktivlari, pul, yuridik hujjatlar, ya'ni tuzilgan va qayd etilgan ma'lumotlarning holati haqidagi yozuvlarni o'z ichiga oladi. Bu esa papiirus, pergament yoki qog'ozdagi reyestrni almashtirishga olib boradi. Blokcheyn raqamli protokoli tranzaksiyalarni yozish, ishlab chiqish va himoya qilish imkonini bergan holda tarmoq ishtirokchilari o'rtasida o'ziga xos ishonch darajasini o'rnatishi mumkin. Bu ishtirokchilar o'zgalarning sa'y-harakatlari bilan ma'lumotlarning haqiqiylikini tekshirish va tasdiqlashlari mumkin [8].

Ushbu texnologiya haqida tadqiqot olib borgan A.V. Matyushkinaning fikricha, korrupsiyadan samarali himoya qilish imkoniyati yo'q paytda davlat jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotiga blokcheyn texnologiyalarini joriy etish bo'yicha yanada qat'iyroq qadamlar tashlashi uchun jiddiy shart-sharoitlar

paydo bo'lgan. Bu, oxir-oqibat, jinoiy guruhlardan orqada qolib ketmaslik va nomarkazlashgan raqamli platformalarni o'z faoliyatiga joriy qilish orqali rivojlangan davlatlarni oldinga o'tkazib yubormaslik uchun zarur [9].

Tahlillar blokcheyn texnologiyasini korrupsiyaning oldini olishda umumprofilaktik vosita sifatida ishlatish qatorida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus vosita sifatida ham foydalanish imkoniyati mavjudligini ko'rsatmoqda.

I.A. Gumarov va D.M. Faraxiyevlarning fikricha, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoniga blokcheyn tizimlarini joriy etish juda samarali hisoblanadi. Ularning aytishicha, blokcheyn texnologiyasi murakkab, yuqori texnologiyali va ko'p funksiyali mexanizm bo'lib, u katta hajmdagi ma'lumotlarni, shu jumladan, korrupsiya bilan bog'liq ma'lumotlarni tez va samarali qayta ishlashga yordam beradi [10].

Bu texnologiya shaxs hujjatlarini rasmiylashtirish yoki o'z harakatlarini tasdiqlash zarurati talab etiladigan davlat xizmatlarining deyarli har qanday segmentiga joriy etilishi mumkin. Ko'pincha bu texnologiyani davlat reyestrini shakllantirish, katta miqdordagi ma'lumotlarni saqlash va axborotning haqqoniyligini tasdiqlash zarurati haqida gap ketganda qo'llaydilar [11].

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida blokcheyn texnologiyasini keng qo'llash taklif etiladi. Ushbu texnologiyani qo'llashning afzalliklari nomarkazlashtirish, ochiqlik va o'zgarimaslikdir. Nomarkazlashtirilgan tarmoq g'oyasi foydalanuvchilarni uchinchi shaxslarning xizmatlaridan foydalanish zaruratidan xalos qilishdan iborat. Agar axborot olish yoki ko'chmas mulkni ro'yxatga olish kerak bo'lsa, buni har qanday vaqtda tashqi vositachilarni jalb qilmasdan amalga oshirish mumkin. Nomarkazlashtirish tarmoqning foydalanuvchidan foydalanuvchiga ishlashini anglatadi. Bu ma'noda hujjat almashuv xarajatlari va muddatlarini sezilarli darajada qisqartirish mumkin.

Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, uning ochiqligi foydalanuvchilarga bir tomondan maxfiylikni, ikkinchi tomondan esa tarmoqdagi ma'lumotlarning to'liq mavjudligi va ochiqligini ta'minlaydi. Tarmoqdagi har bir foydalanuvchining shaxsiyati murakkab kriptografiya yordamida shifrlangan va faqat ommaviy manzil bilan ko'rsatiladi. Foydalanuvchilarning shaxsiyati shifrlangan bo'lsa ham, tarmoq ma'lum manzil bo'yicha amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni ko'rish imkonini beradi. Shunday qilib, tarmoqning maxfiyligi va ochiqligi bir vaqtda ta'minlanadi.

Blokcheyn texnologiyasining o'zgarasligi ma'lumotlar bazasidagi har bir yangi yozuvning avvalgisi bilan bog'langanligida ko'rinadi. Bloklarga har qanday o'zgartish yoki qo'shimcha kiritish barcha qolgan bloklarning o'zgarishiga olib keladi. Shu bilan birga, o'zgarishdan keyingi barcha bloklar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Aslida bu tarmoq ichida qo'llanadigan kuchli kriptografik ma'lumotlarni himoyalashdir. Bir marta kiritilgan yozuvni soxtalashtirish yoki o'chirish mumkin emas. Ushbu nomarkazlashtirilgan tizim ochiqlik va o'zgaraslik tufayli korrupsiya va turli xil firibgarliklarni yo'q qilish imkoniyatiga ega.

Blokcheyn standart ma'lumotlar bazalarining eng muhim afzalliklaridan biri ma'lumotlarning soxtalashtirilishidan yuqori darajada himoyalanganligidir. Davlat blokcheyn-reyestrlariga kiritilgan fuqarolar, ko'chmas mulk, kompaniyalar, sertifikatlar, diplomlar, mulk huquqlari bo'yicha ma'lumotlarni o'zgartirish deyarli imkonsiz. Bunday ishonchlilik darajasi reyestr ma'lumotlaridan to'laqonli huquqiy ahamiyatga ega hujjatlar sifatida foydalanish imkonini beradi. Chunki blokcheyn-reyestrda yozuv har qanday imzoli va muhrlangan qog'ozdan haqqoniyroq, shu bilan birga, har vaqt va hamma joyda mavjud bo'ladi [11].

Ayrim tadqiqotchilar blokcheyn tizimidan foydalanishning ba'zi kamchiliklarini ko'rsatib o'tishgan. Birinchisi – yetarlicha

qimmat texnologiya bo'lib, unda *Proof-of-Work* (bajarilgan ishni isbotlash) konsensus algoritmi qo'llanadi, uning samaradorligi tarmoq tizimlarini xakerlik hujumlari (Dos hujumlari) va spamdan himoya qilish – ma'lumotlarni reklama xususiyatidagi axborotlar bilan ta'minlashni xohlamagan shaxslarga yuborishda ko'rinadi. Ya'ni bunday tizimni yaratish, texnik bazani tashkil etish va blokcheynni muayyan sohaga joriy etish juda katta xarajatni talab qiladi. Ikkinchi kamchilik blokcheynni joriy qilish bilan bog'liq: katta hududlarda bu texnologiyadan foydalanish ko'lami tufayli tizimga yuklama ortishi va u ishdan chiqishi mumkin. Masalan, bitta tranzaksiya to'rt dan besh soatgacha davom etishi mumkin. Uchinchisi – blokcheyn tizimlariga ixtisoslashgan IT-mutaxassislarining yetishmasligi [12].

Qator davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda ushbu texnologiyadan samarali foydalanib kelmoqda. Misol uchun, Daniya Tashqi ishlar vazirligining hisobotiga ko'ra, blokcheyn va Big Data texnologiyasi ma'muriy va siyosiy korrupsiyaga qarshi kurashishda qo'llanishi mumkin. Blokcheyndan korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida ishonch bilan foydalanish mumkin, chunki bu texnologiya ma'lumotlarning shaffofligi va o'zgarasligini ta'minlaydi. Vazirlikning so'zlariga ko'ra, tranzaksiyalarning shaffof kuzatuvini pora olish ehtimolini kamaytiradi, faqat taqsimlangan reyestrga to'g'ri ma'lumotlar kiritilgan taqdirda bu mumkin bo'ladi [13].

A.V. Anosovning fikricha, blokcheynning qo'llanishi tufayli turli ma'lumotlar, jumladan, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasiga oid ma'lumotlarni hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazishning to'liq avtonom va kriptografiya usullari bilan himoyalangan tizimini tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ladi [14].

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu texnologiyaning davlat xizmatlarida, davlat reyestrlarida va ma'lumot bazalarida qo'llashni

kengaytirish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xususan, korrupsiyaning oldini olishdagi potensialidan to'laqonli foydalanish maqsadida blokcheyn texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Dasturda davlat idoralari xodimlari-

ning ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyasini joriy etish asosida professional tayyorgarlik darajasini oshirish va bu borada ilg'or xorijiy davlatlarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish, zarur tadqiqot ishlarini amalga oshirish singari chora-tadbirlar qamrab olinishi kerak.

REFERENCES

1. Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. 2008. Available at: <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>
2. Kachan D. A. Texnologii raspredelennikh reestrov i perspektivii ikh ispolzovaniya v sisteme obrazovaniya [Distributed ledger technologies and prospects for their use in the education system]. Available at: <https://dt.bsuir.by/jour/article/viewFile/116/81>
3. Reorient, Rethink, Revolutionize. Available at: <https://www.blockchain-council.org/>
4. Top 10 Countries Leading Blockchain Technology In The World. Available at: www.blockchain-council.org/blockchain/top-10-countries-leading-blockchain-technology-in-the-world/
5. Primeneniye tekhnologii blokcheyn v sisteme Organizatsii Obyedinennykh Natsiy: na puti k sostoyaniyu gotovnosti [Application of Blockchain Technology]
6. United Nations System: Towards a State of Readiness. Available at: <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/g21/067/90/pdf/g2106790.pdf>
7. Blockchain and distributed ledger technologies – Reference architecture. Available at: <https://docs.cntd.ru/document/728250232>
8. Blokcheyn texnologiyasi odamlar uchun davlat xizmatlaridagi shaffoflik va qulaylikni qanday yaxshilaydi? [How can blockchain technology improve transparency and convenience in government services for people?]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/26/blockchain-technology/>
9. Kosisiin F.G. Tsifrovyye tekhnologii sovremennogo obshchestva: pro et contra [Digital technologies of modern society: pro et contra] 2021, pp. 134–146. DOI: 10.34823/SGZ.2021.5.51674.
10. Matyushkina, A.V. Blokcheyn-platforma – net povoda dlya korruptsii [Blockchain platform – no reason for corruption]. *Humanitarian and Political-legal Studies*, 2018, vol. 3 (3), p. 42.
11. Gumarov I. A., Faraxiyev D. M. Tekhnologiya blokcheyn kak sredstvo protivodeystviya korruptsii [Blockchain technology as a means of combating corruption]. *Scientific Component*, 2022, vol. 1 (13), pp. 81–88. DOI: 10.51980/2686-939X_2022_1_81
12. Kurbatova O.V., Sakulina L.L. Gosudarstvennyye uslugi v usloviyakh tsifrovizatsii gosudarstvennogo upravleniya [Public services in the context of digitalization of public administration]. *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2020, vol. 4, pp. 186–189.
13. Kulikov A.V., Simvolokova D.A. Sovremennyy sposob bor'by s korruptsiyey – ispol'zovaniye tekhnologii blokcheyn [A modern way to fight corruption is to use blockchain technology]. DOI: 10.24412/2071-6184-2021-4-36-42
14. Daniya rassmatrivayet blokcheyn kak sredstvo bor'by s korruptsiyey [Denmark Sees Blockchain as Anti-Corruption Tool]. Available at: <https://bits.media/daniya-rassmatrivaet-blokcheyn-kak-sredstvo-borby-s-korruptsiyey/>
15. Anosov A.V. Tsifrovyye determinanty korruptsionnoy prestupnosti [Digital Determinants of Corruption Crime]. *Labor Academy of Management of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2023, vol. 1 (65), p. 82. DOI: 10.24412/2072-9391-2023-165-77-85

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 1-SON

VOLUME 5 / ISSUE 1 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1.